



SAMARQAND VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI





SAMARQAND VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARILISHI

*(2023-yilning yanvar-fevral
oylari uchun dastlabki
ma'lumot)*



Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilning yanvar-fevral oylarida viloyat korxonalari tomonidan 4 020,8 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 100,6 % ni tashkil etdi.

yanvar-fevral
mlrd. so'm



yanvar-fevral
FHI, %






■ mlrd. so'm FHI, %

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.


Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Jomboy tumanida (3 312,4 ming so'm) hamda Samarqand shahrida (2 985,4 ming so'm) nisbatan yuqoriligini ko'rsatmoqda.





Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari (2023-yil yanvar-fevral oylarida)

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib 4 020,8 mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 100,6 % ni, tashkil etdi.



2023-yilning yanvar-fevral oylarida viloyatda jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Samarqand shahri (42,1 %), Jomboy tumani (15,0 %), Tayloq tumani (6,5 %), hamda Utgut (6,0 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Oqdaryo tumanida (117,7 %), Bulung'ur tumanida (114,5 %) hamda Qo'shrabot tumanida (113,6 %) kuzatildi.




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 2023-yil yanvar-fevral oylari

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilishda 17,9 % ga hamda ishlab chiqarish 3,0 % ga o'sishi kuzatildi.

Shuningdek, Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 42,7 % ga hamda Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 64,3 % ga pasayish kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 19,8 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ini tashkil etdi.




Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarning o'zgarish sur'ati

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, foizda



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,2 % ni (2023-yilning yanvar-fevral oylarida 0,6 %), o'rta-yuqori texnologiyali 13,3 % (14,2 %), o'rta-quyi texnologiyali 13,9 % (14,4 %) va quyi texnologiyalisi 67,9 % (68,4 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 2,6 % (2022-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 80,6 %), metallurgiya sanoatining ulushi 9,3 % (2022-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 126,4 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 23,9 % (2022-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 80,7 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 42,6 % (2022-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 113,0 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-fevral	2023-yil yanvar-fevral	Farqi, +/-
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	28,2	19,7	- 8,5
Paxta tolasi, ming t.	13,1	13,8	0,7
Tozalangan paxta yog'i tonna.	1 336,0	2 802,0	1 466,0
Konyak spirti – ming litr 100 % spirt	64,0	51,0	- 13,0
Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni og'irligi 600 g (buxanka), tonna	109,1	123,5	14,4
Uzum vinosi - ming litr	3,2	4,7	1,5
Aroq – ming litr 100 % spirt	13,7	6,3	- 7,4

2023-yilning yanvar-fevral oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni og'irligi 600 g (buxanka), 123,5 tonna (2022- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 13,2 % ga ko'paygan), 19,7 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (29,9 %) ishlab chiqarishda pasayish kuzatildi.

Yuk avtomobillari ishlab chiqarish

(2023-yil yanvar-fevral oylarida)

Samarqand viloyatida 2023-yil yanvar-fevral oylarida yirik korxonalar bo'yicha jami 350 dona yuk avtomobillari ishlab chiqarildi. Yuk avtomobillari ishlab chiqarishda o'sish sur'ati o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 14,2 % ga kamaygan.



2023-yil

350 dona

2023-yil

85,8 %

2022-yil

425 dona

2022-yil

74,4 %

2021-yil

571 dona

2021-yil

89,8 %

Avtobuslar ishlab chiqarish

(2023-yil yanvar-fevral oylarida)

Samarqand viloyatida 2023-yil yanvar-fevral oylarida 114 dona avtobus ishlab chiqarilib, ushbu ko'rsatgich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 67,6 % ga ko'paygan.



2023-yil

114 dona

2023-yil

167,6 %

2022-yil

68 dona

2022-yil

165,9 %

2021-yil


41 dona

2021-yil

30,1 %




Metallurgiya sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-fevral oylarida metallurgiya sanoati ulushi 8,6 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 210,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 9,5 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa 126,4 % ni va ishlab chiqarish hajmi 372,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-fevral oylarida Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish ulushi 3,2 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 91,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish ulushi 1,2 % gacha ko'tarilgan, fizik hajm indeksi esa, 102,7 % ni va ishlab chiqarish hajmi 46,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-fevral oylarida Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 30,6 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 119,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra, Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 33,1 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa, 99,5 % ni va ishlab chiqarish hajmi 1 299,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

2022-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,6 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 86,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,8 % ni, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 121,5 % ni va ishlab chiqarish hajmi 30,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.




To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2022-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 25,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 110,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 20,8 % ni, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 83,5 % ni va ishlab chiqarish hajmi 816,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Kiyim ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-fevral oylarida Kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,0 % ni, fizik hajm indeksi esa 134,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, Kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,9 %, fizik hajm indeksi 69,5 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 113,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.





Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish




2022-yilning yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,7 % ni, fizik hajm indeksi esa 92,5 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,5 % ni, fizik hajm indeksi 67,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 20,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish



2022-yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,5 % ni, fizik hajm indeksi esa 148,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,7 %, fizik hajm indeksi 110,6 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 27,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish




2022-yilning yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 111,2 % .

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,2 % ni, fizik hajm indeksi 102,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 46,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Elektr uskunalari ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 107,9 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2023-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,8 % ni, fizik hajm indeksi 102,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 71,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,4 % ni, fizik hajm indeksi esa 124,0 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2023-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,3 % ni, fizik hajm indeksi 36,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 50,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 11,8 % ni, fizik hajm indeksi esa 111,9 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 12,1 %, fizik hajm indeksi 103,8 % ga hamda ishlab chiqarish hajmi 475,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 50,4 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,3 % ini) tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-fevral oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 35,7 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-fevral	2023-yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	74 375,7	5 486,5	- 68 889,2
Issqlik energiyasi, ming, gkal	1 278 702,0	1 936 329,6	657 627,6


O'tgan yilning mos davriga nisbatan, foizda *



Elektroenergiya



Issqlik energiyasi



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 12,9 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ni) tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-fevral	2023-yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	7 701,8	6 883,9	- 818,0
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	11 460,3	14 382,3	2 922,0
Plastmassa chiqindilari, tonna	290,0	51,2	- 238,8


O'tgan yilning mos davriga nisbatan, foizda *



Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar




Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm






Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib 28,6 % shuningdek, Jomboy 12,1 %, Toyloq 11,2 % ni hamda Urgut tumanlarida 10,8 % ni tashkil etdi




■ mlrd. so'm ○ o'sish sur'ati, %





Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 459,0 ming so'm bo'lgan holda, Samarqand shahrida 944,2 ming so'mni, Jomboy tumanida 1 235,9 ming so'mni, Toyloq tumanida 982,5 ming so'mni va Samarqand tumanida 688,5 ming so'mni tashkil etdi.

yanvar-fevral
ming so'm




yanvar-fevral
o'sish sur'ati



■ ming so'm o'sish sur'ati, %

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1 870,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022-yilning mos davriga nisbatan 104,0 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 46,5 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari




2023-yilning yanvar-fevral oylarida viloyatda 926,1 milliard so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 3,4 % ga oshdi.

2022-yilning shu davriga nisbatan viloyat buyicha o'tacha iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda Bulung'ur tumani (163,3 %), Paxtachi tumani (133,1 %), Jomboy tumani (128,3 %) hamda Oqdaryo tuman (112,5 %) korxonlari tomonidan yuqori o'sish sur'ati kuzatildi.

Nooziq-ovqat mahsulotlar



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 49,5 %, nooziq-ovqat mahsulotlar 50,5 % ni tashkil etdi.

2022-yilning yanvar-fevral oylarida iste'mol tovarlarining umumiy hajmda oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 33,5 %, nooziq-ovqat mahsulotlar ulushi 66,5 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, 2022-yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlarining o'sish sur'ati 103,4 %, nooziq-ovqat mahsulotlar o'sish sur'ati 104,6 % ni tashkil etdi.





Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib, 33,2 % ni, shuningdek, tumanlardan Urgut 10,8 %, Jomboy 9,1 %, hamda Samarqand tumani 8,6 % ni tashkil etdi.






Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi




■ mlrd. so'm o'sish sur'ati, %

Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatdagi jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib, 24,2 % ni, shuningdek, Jomboy tumani 15,0 % ni, Toyloq tumani esa 14,7 % ni tashkil etdi.



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi



■ mlrd. so'm o'sish sur'ati, %

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

(2023-yil 1-mart holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 6 884 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 683 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 24,4 %) Samarqand shahriga, 888 tasi (12,9 %) Urgut tumaniga, 658 tasi (9,6 %) Samarqand tumaniga, 561 tasi (8,1 %) Pastdarg'om tumaniga va 361 tasi (5,2 %) Kattaqo'rg'on tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Jami yangi tashkil etilgan

211 ta

2023-yil yanvar-ferval

323 ta

2022-yil yanvar-ferval

356 ta

2021-yil yanvar-ferval



Jami faoliyat yuritayotgan

6 884 ta


2023-yil yanvar-ferval

8 233 ta

2022-yil yanvar-ferval

7 294 ta

2021-yil yanvar-ferval




Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1 522,2 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 37,9 % ni tashkil etdi.



yanvar-fevral

mlrd. soʻm



yanvar-fevral

ulushi %



■ mlrd. soʻm oʻsish surʻati, %